

SHAHARSOZLIK MUAMMOLARINI O'RGANISHDA EMPIRIK TADQIQOTNING AHAMIYATI.

Abrorbek Yuldashev Xayitbayevich

E-mail: ya.abrorbek@gmail.com

Annotatsiya Tezisdagi hududiy rejalashtirishning va shaharsozlikning amalda bajarilishida empirik tadqiqotning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: empirik tadqiqot, energiya tanqisligi, sifat tahlili, empirik izlanish hududi.

The thesis highlights the importance of empirical research in the practical implementation of regional planning and urban development.

Keywords: empirical research, energy shortage, qualitative analysis, empirical research area.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekistonda energiya ta'minoti muammoli holatda ekanligi kuzatilmoqda. Mamlakatda energiya tizimini yaxshilash va rivojlantirish borasida tinimsiz chora-tadbirlar olib borilmoqda, shunday bo'lsa-da, mahalliy darajada energiya tanqisligi belgilari mavjud. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda samarali bozor iqtisodiyotini shakllantirish maqsadida iqtisodiy islohotlar yo'lga qo'yilgan. Natijada, prezident farmonlari, mamlakat energiya bozorini rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlari ham qabul qilingan (O'zbekistonMeT, 2019). Yuqoridagi yechimlarning amaldagi unumi yanada ko'zga tashlanishi va yechimlar aynan muammoli nuqtaning o'ziga ta'sir qilishi uchun, muammolarni o'rganishda empirik tadqiqotning ahamiyati kattadir. Chunki bunda ilmiy tadqiqot orqali yig'ilgan ma'lumotlar ishchi guruxlar tomonidan o'rganilbigina qolmasdan, ilmiy-obyektiv nuqtai nazardan chuqur taxlil qilinib, obyektiv ma'lumotlar to'plamiga aylantiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Energiya ta'minoti muammolari ijtimoiy kontekstda o'rganilgan ilmiy manbalar kamligi sabab adabiyotlar tahlili murakkab kechdi. Bu holat tadqiqotni rejalashtirish bosqichini qiyinlashtiradi (Mehta va boshq., 2021).

O'zbekiston kontekstidagi ilmiy nashrlar asosan iqtisodiy, texnik va siyosiy yo'nalishlarga oid. (Dadabaev, Djalilova, 2020). Bu esa ilmiy izlanishlarda ijtimoiy-madaniy masalalarga deyarli e'tibor berilmaganidan darak (Eschchanov va boshq., 2013). Mazkur holatda tahlil uchun ma'lumotlarning sifat tahlili uslubi tanlandi. Aynan bu uslub o'tkazilgan suxbat matnlari (transkriptlar) bilan ishlashni va ularni talqin orqali tahlil qilishni osonlashtiradi. Tadqiqot savollari insonlarning muayyan kundalik amaliyotlariga taalluqli va ularning ifodasi asosan talqin va tavsiflash orqali amalga oshiriladi. (Mattissek va boshq., 2013).

Asosiy qism

Uslubning qo'llanilishidan maqsad — Andijonda energiya ta'minotida muammolar mavjud degan taxminni tekshirishdan iborat. Xususan, suhbatdoshlar bilan muloqot jarayonida energiya ta'minoti muammolari haqida xulosalar chiqarilishi metodning asosiy

vazifasi hisoblanadi. Shu sababli, fuqarolik jamiyati nuqtayi nazaridan masalaga yondashish muhim. Bu orqali fuqarolar o'z kundalik hayotlarida duch kelayotgan muammolarni batafsil tasvirlash imkonini beradi (Przyborski, Wohlrab-Sahr, 2014).

Ma'lumotlarning sifat tahlil usuli yordamida tadqiqotdan olingan ilk ma'lumotlarni nazariy jihatdan asoslangan mezonlarga ko'ra saralash mumkin, bu esa mintaqaviy energiya ta'minoti muammolarini tizimli tarzda yoritish imkonini beradi. Energiya ta'minoti holatini tahlil qilish uchun muammolarni aks ettiruvchi fikrlarni tanlab olish zarur. Ta'kidlash kerakki, muammolarning aks ettirilishi suxbatdoshlarning kundalik hayotdagi tajribalariga asoslanadi. Shu sababli, energiya ta'minoti bilan bog'liq muammolarni jamiyatning kundalik hayotidan izlash zarur bo'ladi.

Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni Mayring tomonidan tavsiflangan uslubga muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshirildi:

Intervyuni yozib olish	1-bosqichli qisqartirish (subkategoriyalar shakllantirish)
TQ usuli bo'yicha transkripsiya qilish	Natijalarni tekshirish
Tahlil bo'limlarini aniqlash	2-bosqichli qisqartirish (kategoriyalar shakllantirish)
Tekshirish	Natijalarni tekshirish
Parafraza qilish	Argumentatsiya (asoslash)
Tekshirish	Asoslarning mantiqiy izchilligini tekshirish
umumlashtirish	Xulosa chiqarish
Tekshirish	

Transkriplash Mayring (2015) tomonidan ishlab chiqilgan "Talk in Qualitative Social Research" ("Sifatli ijtimoiy tadqiqotlarda suhbat tahlili" qisqacha TQ) usuli bilan amalga oshirildi. Shundan so'ng, ma'lumotlar kategoriyalar tizimiga ajratildi.

Sifat tahlilning yana bir muhim jihati shundaki, tahlilni turli talqin bosqichlariga ajratish orqali materialni takroriy tekshirish imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa, talqin o'quvchi uchun ham tushunarli va izchil bo'ladi. Ushbu tadqiqotda tahlil jarayoni biroz moslashtirilgan bo'lib, bu ishning murakkabligini kamaytirishga yordam beradi (Mayring, 2015).

Natija va xulosalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra energiya ta'minotida real muammolarning borligi ilmiy asnoda tasdiqlandi. Bundan tashqari empirik izlanish mavzuning boshqa taraflarini ochib berdi, ya'ni qayta tiklanuvchi energiya va jamiyatda uning ijtimoiy qabul qilinishiga potensial bor bo'lishi mumkin degan taxminni yuzaga keltirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Andijonda energiya ta'minotida katta yetishmovchilik mavjud. Shu asnoda gaz va elektr uzilishlari odamlarni turli maxsus pechlardan foydalanishga va uylarining energiya samaradorligini uy-qurilish rejalarini o'zgartirish orqali oshirishga majbur qilmoqda. Tadqiqot ajablanarli natija va xulosalar ni berdi. Bunga empirik uslubni qo'llash orqali erishilganining o'zi, mavzuning to'g'ri tanlangani, uslubning shaharsozlikdagi ahamiyatini ko'rsatib berdi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarning sifat tahlil ushbu mavzuni o'rganish uchun mos usul hisoblanadi. Bu metod yordamida mantiqan izchil va tushunarli natijalarga erishish mumkin. Shu bilan birga, har bir tadqiqot rejasi tanqidiy baholanishi lozim, chunki u doimo mukammal tashkil qilinishni darkor. Shu asnoda tadqiqot jarayoni turli ta'sirlarga bardoshli bo'ladi.

Intervyular davomida oldindan tayyorlangan savollar berilgan bo'lib, ularning shakllanishi tadqiqot savollariga yaqin bo'lishi mumkin. Savollarni shakllantirish tadqiqotchi tomonidan mustaqil amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqot boshlanishidan avval savollar uchinchi shaxs tomonidan tanqidiy va tahliliy tekshirilishi ba'zi hollarda hattoki zarur bo'ladi. Bu savollarning sifatini va mavzuga mosligini ta'minlash imkonini beradi. Tahlilning yakuni tadqiqotchi tomonidan qayta tiklangan konstruktsiya sifatida hosil bo'ladi. Bu jarayonda tadqiqotchining tajribasi muhim ahamiyatga ega, ya'ni metodning maxsus holatga qanchalik aniq moslashtirilishi tajribaga bog'liq. Boshqacha aytganda, tadqiqotchining tajribasi yetishmasligi uning taxminlari natijalar konstruktsiyasida aks etishiga olib keladi. Suxbatdoshlarning fikrlaridan energiya ta'minoti muammolarini mantiqan aniqlash tadqiqotchiga ayniqsa ilk tahlil urinishlarida uslubiy qiyinlik tug'diradi. Shu nuqtai nazardan, boshqarilishi osonroq bo'lgan tahlil metodini qo'llash tavsiya etiladi. Aynan shuning uchun mazmuniy sifat tahlil qo'llanilishga mos bo'lib, u izchil va tushunarli tahlil uchun yetarlidir.

Adabiyot va manbalar:

1. Andijon statistika boshqarmasi, 2021. <http://andstat.uz/>
2. Baibagyshov et al., 2013. ENERGIESPAREN AUF GRASS-ROOTS-EBENE IN KIRGISTAN. ZENTRALASIEN-ANALYSEN, Issue 66, pp. S: 2, 2.
3. Dadabaev, Djalilova, 2020. Connectivity, energy, and transportation in Uzbekistan's strategy vis-à-vis
4. Djalilova, N., 2021. Sustainable Energy in Central Asia. New York: Routledge.
5. Energetikavazirligi, O. R., 2017. www.minenergy.uz. [Online] Available at: <https://minenergy.uz/uz/lists/view/17>
6. Energieministerium, U., 2019. Atom elektrostansiyasi ekologiyaga xavf tug'diradimi?. [Online]
7. Eschchanov et al., 2013. Prospects of renewable energy penetration in Uzbekistan.
8. Hududgazta'minot, 2020. <https://hududgaz.uz/>. [Online]
9. Hurramov, S., 2016. CAAN. [Online]
10. Khusainova, R., 2021. The Scientific And Theoretical Problems Of Transition To A Competitive Electricity
11. Matissek et al., 2013. Qualitative Inhaltsanalyse. In: Methoden der empirischen Humangeographie. 1 Hrsg. Braunschweig: WESTERMANN, p. 214.
12. Mayring, P., 2015. In: Qualitative Inhaltsanalyse. 12 Hrsg. Weinheim und Basel: Beltz, pp. 61 ff.
13. Mehta et al., 2021. The Energy Situation in Central Asia: A Comprehensive Energy Review Focusing on Rural Areas. Energies, 14(2805).
14. Przyborski, Wohlrab-Sahr, 2014. Spezielle Formen des Interviews und der Erhebung. In: O. W. GmbH, Hrsg. Qualitative Sozialforschung. Oldenburg: Oldenbourg Wissenschaftsverlag GmbH, p. 127.